




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



	Özbək dilində ibrani adlari	
20	Rəxşanə BABAZADƏ, Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində məsdər	175
21	Aytəkin ZEYNALOVA, Özbəkistan və naxçıvan mətbəxində folklor elementləri	178
22	Nazmina ABDISAMETOVA, Qorabuloq shevasida qo‘llanadigan idish-tovoq va uy anjomlari nomi	180
23	Mohlaroyim IZZATOVA, Folklor adabiyotining milliy tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni	183

2-sho‘ba. O‘ZBEK SHEVALARI TADQIQOTLARI

1	Samixon ASHIRBOYEV, 20-yillar matbuoti: Faxri Kamolning singarmonizm talqini 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/IYBD6338	187
2	Abdulhay SOBIROV, O‘zbek areal tilshunosligining shakllanish va rivojlanish bosqichlari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/NDQE1005	191
3	Shukurjon NORBAYEVA, Xorazm shevalari leksikasida substrat asosli birliklar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/EMTE8289	195
4	Ibrohim DARVISHOV, Namangan qipchoq shevalarida sinonimlar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/OKNB2844	200
5	Mo‘minjon TURDIBEKOV, Tojikistonda o‘zbek shevalarining o‘rganilishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/SDAQ1466	205
6	Murodqosim ABDIYEV, Salohiddin RAXMONOV, Chandir shevasining ba’zi grammatik xususiyatlari xususida (Pastdarg‘om tumani Chandir qishlog‘i misolida) 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/DHJ12368	209
7	Jo‘ra XUDOYBERDIYEV, Y.D.Polivanov va o‘zbek shevashunosligining ayrim masalalari	212
8	Alisher UBAYDULLAYEV, Qipchoq lahjasiga mansub ayrim qarindoshlik terminlarining lingvistik tahlili 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMZR8354	219
9	Navro‘z RAXMONOV, Qipchoq shevalarini o‘rganishning yangi bosqichi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMGU2063	223
10	Zoxira XIDRALIYEVA, Iqon shevasiniung o‘zbek adabiy tili va ayrim o‘zbek shevalariga munosabati	225
11	Baurjan SAYFULLAYEV, O‘zbek va qozoq til kontaktlari natijasida shakllangan toshkent qozoq shevasining lingvistik tahlili	228
12	Zilola TILLABAYEVA, Samarqand viloyati qarluq shevalarida o‘zlashma qatlam va bilingvizm masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/GKIU1258	236
13	Vaziraxon ALIMBEKOVA, Adabiy tildagi lakuna va sheva leksikasi munosabati	239
14	Muattarxon TURDIXO‘JAYEVA,	243

QIPCHOQ SHEVALARINI O'RGANISHNING YANGI BOSQICHI

A NEW STAGE IN THE STUDY OF KIPCHAK DIALECTS

Navro'z RAXMONOV,

NavDU dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMGU2063

Annotation. *This thesis states that the Kipchak dialects of the Uzbek language retain the traditional characteristics of the ethnos, the creation of dictionaries of linguistic evidence collected to date, and its application in modern areas of linguistics are among the priority tasks in the development of the field and in the context of globalization.*

Key words: *Kipchak dialect, dialect, non-alternative vocabulary, connotative seme, similes, phrase, proverb, saying, dictionary.*

Hozirga qadar shevashunos olimlarimiz tomonidan to'plangan boy sheva materiallarini tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida tatbiq etish soha taraqqiyoti uchun ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Chunonchi, shevalarda xalqning o'tmishi, madaniyati, urf-odatlar, tafakkur tarzi kabi etnolisoniy xususiyatlar mujassam. Xususan, qipchoq shevalari bu jihatdan (boshqa shevalarga qaraganda ham) hozirga qadar ko'plab qimmatli ma'lumotlarni o'zida saqlab kelayotganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, o'zbek tilining qipchoq shevalarining bilimdoni, filologiya fanlari doktori, professor Xudoyberdi Doniyorov o'rinli ta'kidlaganlaridek, ... bu ishlarni (qipchoq shevalarini o'rganish) hali har xil aspektda hamda yangi-yangi shevalar hamda dialektlar bilan bog'lab o'rganishni davom ettirmoq lozim [Дониёров 1979; 6]. Bizning o'zbek shevalari, xususan, qipchoq tipli shevalarni uzoq yillar mobaynida kuzatishimiz, to'plangan boy materiallarimiz ham mazkur shevaning imkoniyatlaridan yetalicha foydalanilmaganligini yoki tadqiq qilinmaganligini, o'z navbatida, shevashunosligimiz oldida bu borada qilinajak ishlar ko'p ekanligini ko'rsatmoqda. Jumladan, adabiy tildagi leksik bo'shliqlarni to'ldirishda mazkur shevalarning imkoniyatidan samaraliroq foydalanish, qipchoq shevalari bo'yicha turli lug'atlar yaratish; to'plangan lisoniy dalillarni tilshunoslikning lingvomadaniy, sotsiolingvistik, lingvopragmatik, psixolingvistik, lingvoareal kabi zamonaviy yo'nalishlarida tatbiq etish kabi vazifalar kun tartibiga qo'yilmoqda. Zero, shiddat bilan rivojlanib borayotgan globallashuv sharoitida milliy til va uning shevalarini saqlab qolish, lug'atlarini tuzish, ilmiy asoslarda o'rganish har jihatdan zarur.

Biz yakka, jamoaviy (dala amaliyoti davomida talabalarimiz bilan) o'rganishlarimiz davomida Samarqand, Qashqadaryo, Navoiy viloyatlarining qipchoq tipli shevalaridan nihoyatda ko'plab boy, qiziqarli lisoniy dalillar (so'zlar,

o'xshatishlar, iboralar, maqollar, matallar, naqlar) to'pladik. Ushbu tezisimizda esa to'plangan sheva materiallarimizdan bir necha misollar keltirish bilan chegaralanamiz:

1. Muqobilsiz leksika va lakunalar. Adabiy tilda muqobili yo'q yoki muayyan shevada bo'lib, boshqa shevada uchramaydigan so'zlar.

to'rkinnamoq – yangi kelinni birovnikiga olib bormoq, *kalaz / qalaz olmoq* – erta bahorda qo'y-qo'zilarining ko'kdan to'yib, bor kuchini yig'ib olishi, *pitimchali* – hamma ishga epli, o'z joyida qilib ketadigan, *helaslanib* – bir ko'rinib, *qitaytmaydi* – birini ikki qilmaydi, *shardoz* – qoqma gilamning o'rtasini birlashtirib turadigan yigirma ip, *navshar* – erta bahorda sekinlab uzoq muddat yog'adigan yomg'ir);

2. Konnotativ semali so'zlar. Dennotativ ma'noga qo'shimcha tarzda konnotativ baho ifodalovchi shevaga xos so'zlar (ko'zi *miymang'lamoq* – ko'zi o'ynamoq, *lavzang* – lapashang, *nixlamoq* – zichlamoq (o'zni xaltaga nixlamoq), *sannamoq* – vaysamoq, *sersab qaramoq* – sinchiklab qaramoq, *kannab ketgan* – ko'payib ketgan, *marsinmoq* – maqtanmoq (salbiy ma'noda ishlatiladi);

3. O'xshatishlar: *jerdan jilik tovg'anday* (biror yangilik bo'lsa, xabarini olib chopadigan, hammadan suyunchi oladigan kishiga nisbatan ishlatiladi), *talabi toyday* (kim bilandir urishgisi kelib, kesatib gapirib o'tiradigan kishiga nisbatan), *kibiday bo'p* (juda katta, beso'naqay); *juvulmagan qoshiqday* (hamma narsaga aralashidigan; Mahalladagi Hidoy yanga *juvulmagan qoshiqday bo'p* ukasining oilaviy iker-chikirlariga aralashib yuribdi).

4. Iboralar: *tilovi tus berdi* – o'ylagani, aytgani bo'ldi; *chirishdi buzmoq* – tartibni buzmoq, *chochbovi uzun* (soch bog'i uzun) – biror ish yoki ma'rakaning davomiyligini ifodalash uchun ishlatiladi.

5. Maqol, matal, naqlar: Har yerning tulkisini o'zining tozisi bilan ovlash kerak. Fotma uchdi, Zahro keldi. Bovrasang botir bo'lar, tergasang tentak bo'lar. – Baxt, qayga borasan? – Boshi botmoqqa boraman, kiyimi shotmoqqa boraman.

Yuqorida shartli guruhlarining har birini ko'plab sheva materiallari bilan davom ettirish mumkin. Endilikda oldimizda ularni diaxron va sinxron aspektda adabiy til va boshqa shevalar bilan munosabatini sinchiklab o'rganish, tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida tatbiq etish va zaruriy xulosalar chiqarishdek ustuvor vazifa turibdi.